BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

Khalilov Bahromjon Bahodirovich
Asia International University, Bukhara
Lecturer of department of Economics

Abstract. This article provides a practical analysis of the practical application of international financial reporting standards in Uzbekistan and the problems in the transition to international financial reporting standards and ways to overcome them.

Key words: international financial reporting, financial accounting and reporting, international financial reporting standards, national accounting standards, business, investment.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini - moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash bilan bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti tomon harakatiga tushdi. Bu jarayonda sovetlarning buxgalteriya uslublaridan voz kechildi va moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga o'ta boshladi. Jumladan, qonun bilan quvvatlangan turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari qoshida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o'rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi. O'zbekistonda yuritilgan qonunchilik, ta'lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni MHXS bilan to'la uyg'unlashuvga olib kelishi kutilgan edi.

So'nggi yillarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, va o'z o'zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan BHMS bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXSga muvofiq o'zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar bo'yicha o'zgartirish jarayoni sari birinchi qadam - buxgalteriya hisoboti tuzish jarayoniga ta'sir etadigan mahalliy buxgalteriya hisobi yuritishning ayrim usullari umume'tirof etilgan amaliyotga mos kelmasliklarini aniqlashdir. Bu usullar MHXS qo'yadigan talablarga muvofiq tuzatishlar kiritish uchun zarur.

O'zgartirish jarayonining mohiyati BHMS bo'yicha va MHXS bo'yicha hisobdagi mavjud nomuvofiqliklarni aniqlash hamda BHMS asosida tuzilgan hisobotlarga zarur tuzatishlar kiritishdan iborat. BHMS asosida tuzilgan hisobotlarni o'zgartirish aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kuchlari bilan ham, chetdan taklif qilingan mutaxassislar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotda ko'pincha ikkinchi usul foydalaniladi, chunki o'zgarishlar jarayonlarini bajarish ham mahalliy, ham xalqaro hisob standartlari va hisobotlarni o'zgartirish texnikasini mukammal bilish zarurati bilan bog'liq. Korxonalar taklif qilladigan malakali mutaxassislar bu - auditorlik tashkilotlarining xodimlari sanaladi.

Milliy qonunchilik talablariga muvofiq hisob yuritish va hisobotlar tuzishga majbur bo'lgan respublikmiz aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashning ikki

xil texnologiyasi mavjud - parallel hisob va o'zgartirish (transformatsiya). Biroq parallel hisob yuritish mehnat resurslaridan nooqilona foydalanish va mehnat xarajatlarining ortishi tufayli samarasiz hisoblanadi. Hozirgi paytda parallel hisob yuritish yoki hisobotlarni o'zgartirishni qo'llash masalasi qonunchilik tomonidan tartibga solinmaydi va aksiyadorlik jamiyati rahbariyatining ixtiyoriga havola qilinadi, shu sababli ikkala texnologiyani ham taqqoslash mumkin.

Hisobotlarni o'zgartirishning asosiy mohiyati schetlar va operatsiyalarni qayta tasniflash va O'zbekiston hisob tizimi ma'lumotlariga MHXSga muvofiq tuzatishlar kiritish yo'li bilan BHMS bo'yicha hisobotlarni konversiyalash (o'zgartirish) va moslashtirishdan iborat. Parallel hisob yuritishning mohiyati esa shundan iboratki, korxonaning barcha operatsiyalari BHMS bo'yicha ham, MHXS bo'yicha ham hisobda aks ettiriladi. Ikkita bosh kitob: BHMS bo'yicha bosh kitob va MHXS bo'yicha bosh kitob parallel ravishda yuritiladi.

Agar ko'rsatilgan texnologiyalarni jarayonning mehnat sig'imi nuqtai nazaridan baholaydigan bo'lsak, hisobotni o'zgartirishda tuzatishlar kiritish tarkibi va mehnat sig'imi milliy va xalqaro standartlarni yaqinlashtirish doimiy jarayoni tufayli sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin. Shu bilan bir paytda, parallel hisob yuritish butun buxgalteriya hisobi va hisobotlari jarayoniga ta'sir ko'rsatadi, buning oqibatida aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatini qayta k o'rib chiqish va unga mos keluvchi tuzatishlar kiritish muqarrar bo'ladi.

Bevosita inson resurslaridan foydalanishga keladigan bo'lsak, amaliyot shuni ko'rsatadiki, hisobotlarni o'zgartirish ishini ikkitadan oltitagacha malakali mutaxassis uddalay oladi. Parallel hisob yuritishda buxgalteriya va (yoki) moliya xizmatining har bir xodimi u yoki bu darajada MHXS masalalaridan xabardor bo'lishi lozim, bu esa xodimlarni o'qitish va qo'shimcha tayyorlashni taqozo etadi. Bundan tashqari, ushbu holatda korxonada MHXS bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish to'g'riligini nazorat qiladigan kamida bitta malakali mutaxassis bo'lishi lozim. Ikkala holatda ham, agar korxona yetarli darajada malakali mutaxassislarga ega bo'lmasa, u mos keluvchi xizmatlar ko'rsatadigan firmalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Tabiiyki, ikkala holatda ham xizmatlar qiymati farq qiladi va bu farq ko'pincha juda sezilarli bo'ladi.

Hisobot davrida tan olingan daromadlar va xarajatlar barcha moddalarini aksiyadorlik jamiyati yoki yalpi daromad haqida bitta hisobotda, yoki ikkita hisobotda: foyda yoki zarar tarkibiy qismlarini aks ettiradigan hisobot (moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot) va foyda yoki zarardan boshlanadigan va boshqa yalpi daromadlar tarkibiy qismlarini aks ettiradigan hisobotda (yalpi daromad to'g'risida hisobot) taqdim etishi lozim. Quyidagi moddalar yalpi daromad haqida hisobotda davr uchun taqsimlangan moddalar sifatida ochib berilishi lozim:

quyidagilarga mansub sanalgan foyda yoki zarar: a) nazorat qilinmaydigan ulush,

b) bosh korxona mulkdorlari;

Korxona yalpi daromad to'g'risida hisobot, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, izohlarda (agar ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etiladigan bo'lsa) daromadlar va xarajatlarning bironbir moddasini favqulodda modda sifatida taqdim etmasligi lozim.

Agar MHXS talablariga muvofiq, o'zgacha holat talab qilinmasa yoki yo'l qo'yilmasa, korxona foyda yoki zarar tarkibida davr uchun daromadlar va xarajatlar barcha moddalarini tan olishi lozim.

Korxona boshqa umumiy daromadning har bitta tarkibiy qismiga nisbatan foyda solig'i summasini, jumladan, qayta tasniflashda tuzatish kiritishda yoki yalpi daromad to'g'risida hisobotda yoki izohlarda ochib berishi lozim.

Boshqa umumiy daromad tarkibiy qismlari aksiyadorlik jamiyati tomonidan ushbu tarkibiy qismlarga nisbatan foyda solig'i umumiy summasidan bitta summani aks ettirgan holda mos keluvchi soliq samarasigacha yoki soliq samaralarini chiqarib tashlagan holda taqdim etilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati shuningdek, boshqa yalpi daromad tarkibiy qismlariga nisbatan qayta tasniflashda tuzatishlar kiritish haqida axborotni ham ochib berishi lozim.

Agar daromadlar va xarajatlar moddalari muhim sanalsa, korxona ularning xarakteri va summasini yalpi daromad haqida hisobotda yoki izohlarda ochib berishi lozim.

Kapitaldagi o'zgarishlar haqida hisobot aksiyadorlik jamiyati tomonidan MHXS talablariga muvofiq taqdim etiladi va quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi:

davr uchun yalpi jami daromad, bunda nazorat qilinmaydigan ulushlarga va bosh aksiyadorlik jamiyati mulkdorlariga mansub sanalgan yakuniy summalar alohida ko'rsatiladi; kapitalning har bir tarkibiy qismi uchun MHXS 8 ga muvofiq tan olingan retrospektiv qo'llash yoki retrospektiv qayta hisob-kitob samarasi; kapitalning har bir tarkibiy qismi uchun davr boshi va oxirida balans qiymatini solishtirib chiqish, bunda quyidagilar bilan asoslanadigan o'zgarishlar alohida ochib beriladi:

a) foyda yoki zarar moddalari.

b) boshqa yalpi daromad moddalari,

v) bu sifatda ishtirok etayotgan mulkdorlar bilan operatsiyalar, bunda mulk egalari kiritgan badallar va mulk egalari foydasiga taqsimot, shuningdek, nazoratning yo'qotilishiga olib kelmaydigan sho'ba korxonalardagi ishtirok bevosita ulushlaridagi o'zgarishlar alohida aks ettiriladi.

Aksiyadorlik jamiyati davr davomida mulk egalari foydasiga taqsimot sifatida tan olingan dividendlar summasi va bitta aksiyaga to'g'ri keladigan dividendlar mos keluvchi summasini yoki kapitalning o'zgarishi haqida hisobotda, yoki izohlarda taqdim etishi lozim.

Pul mablag'lari harakati haqida hisobotda moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarni jamiyatning pul mablag'lari (va/yoki ularning ekvivalentlari) hosil qilish qobiliyatini, shuningdek, jamiyatning pul oqimlaridan foydalanish ehtiyojlarini baholash uchun asos sanalgan axborot ochib beriladi.

Pul mablag'lari harakati haqida axborotni ochib berish talablari MHXS 7 da belgilab qo'yilgan.

Moliyaviy hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan izohlar:

MHXS talablariga muvofiq foydalanilayotgan hisob siyosati va moliyaviy hisobot tayyorlashning asoslari haqida axborot taqdim etishi;

MHXS talab qiladigan, boshqa bironta moliyaviy hisobotda taqdim etilmaydigan axborotni ochib berish; boshqa bironta moliyaviy hisobotda taqdim etilmaydigan, lekin ko'rsatilgan hisobotlarning istalganini tushunish maqsadida o'rinli bo'lgan axborotni ta'minlashi lozim. Izohlarni taqdim etishning quyidagi tartibi tavsiya etiladi: MHXS ga muvofiq ariza; hisob siyosatining asosiy tamoyillari qisqacha sharhi; moliyaviy holat haqida hisobot, yalpi daromad to'g'risida hisobot, moliyaviy natijalar to'g'risida alohida hisobot (agar taqdim etiladigan bo'lsa), kapitaldagi o'zgarishlar haqida hisobot, pul mablag'lari harakati haqida hisobotda har bir hisobot va har bir modda taqdim etilgan tartib bilan bir xil tartibda moddalar bo'yicha taqdim etilgan ilova qilingan axborot; boshqa axborotlarni ochib berish, jumladan:

a) shartli majburiyatlar va tan olinmagan shartnoma majburiyatlari,

b) nomoliyaviy axborotlar, masalan, risklarni boshqarish sohasida korxona siyosati va maqsadlarini ochib berish.

MHXS talablariga mos keladigan moliyaviy hisobot taqdim etishda nafaqat mos keluvchi standartga murojaat qilish, balki MHXS 1 da ularga havola b o'lgan boshqa MHXS talablariga ham alohida e'tibor qaratish hamda jamiyatning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishga nisbatan ularni qo'llash choralarini ham hisobga olish zarur.

Birimchi navbatda hisobotni o'zgartirishning maqsadini ifodalab olish, o'zgarish jarayonlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan davrni va MHXSga o'tish sanasini, shuningdek, jamiyatning

moliyaviy hisoboti shakllantiriladigan valyutani, hisobot tuziladigan tilni va o'zgartirish usulini belgilash lozim. Bu jarayonga auditorlar jamoasini jalb qilish va MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotni o'zgartirish bo'yicha ishlar umumiy qiymatini hisoblab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bosqichda o'zgartirish maqsadini to'g'ri ifodalash muhimdir. Masalan, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni bosh jamiyat uchun ham, uning sho'ba jamiyatlari uchun ham umumiy hisob siyosati asosida shakllantirish kerak. Bitta variant umumiy hisob siyosati ishlab chiqish va kelgusida qo'llashni ko'zda tutadi. Mos ravishda, barcha jamiyatlar hisob siyosatida belgilab qo'yilgan umumiy talablar bo'yicha individual moliyaviy hisobot tuzadi va hisob yuritadi. Boshqa variant: sho'ba jamiyatlar o'zining hisob siyosati bo'yicha moliyaviy hisobot shakllantiradi, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot tuzishda esa o'z hisobotini umumiy hisob siyosati talablariga muvofiq holga keltirish uchun bu hisobot ma'lumotlariga tuzatishlar kiritadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, MHXS bo'yicha malakali mutaxassislar haligacha yetarli emas. Agar aksiyadorlik jamiyati shtatida hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq o'zgartirish va MHXS bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lmasa, u chetdan tashkilotlarga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Qoidaga ko'ra, hisobotni o'zgartirish bo'yicha xizmatlarni auditorlik tashkilotlari ko'rsatadi.

Hisobotni o'zgartirishni amalga oshirishda yordam ko'rsatish bo'yicha auditorlik tashkiloti bilan shartnomada standart talablar to'plamidan tashqari quyidagi asosiy jihatlarni alohida kelishib olish zarur: hisobotni o'zgartirish bilan bog'liq ishlar aniq hajmi va muddati; muhimlik darajasi (o'zgarish jarayonlarini amalga oshirishda); aksiyadorlik jamiyati va auditorlik tashkiloti xodimlarining birgalikda ishlash tartibi (auditorlik tashkiloti xodimlariga zarur buxgalteriya axborotlari taqdim etish shakli va muddati hamda olingan natijalarni muvofiqlashtirish tartibi).

So'nggi shartni shartnomada belgilab qo'yish maqsadga muvofiq, chunki hisobotni o'zgartirish natijalari bo'yicha aksiyadorlik jamiyati xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobot shakllari to'plaminigina olishi mumkin. Buyurtmachi-jamiyat moliyaviy hisobot elementlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va o'zgarish (transformatsiya) provodkalarini olishi lozim, chunki bunday ma'lumotlar taqdim etilmaganda keyingi o'zgarishlar jarayoni, xuddi parallel hisob yuritish kabi, auditorlik tashkiloti - ijrochining ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

O'zgarishlar jarayonining maqsadi BHMS va MHXS bo'yicha hisobdagi tafovutlarni aniqlashdan iborat bo'lib, shu sababli 2-bosqich eng murakkab, sermashaqqat va uzoq muddatli bosqich sanaladi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston standartlari bo'yicha tashkilotda butun hisob tizimini tahlil qilish zarur. Odatiy, ya'ni tez-tez uchraydigan operatsiyalarni aniqlash, tashkilot schetlari ishchi rejasi va hisob siyosatini o'rganish lozim. Buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xosligi o'zgartirish provodkalari tarkibi va miqdoriga ham ta'sir etadi. Misol uchun, ijara bilan shug'ullanadigan tashkilotlarda ijara operatsiyalari haqida barcha mavjud axborotlarni to'plash va ularni buxgalteriya hisobida BHMSga muvofiq aks ettirish zarur. Ushbu ma'lumotlar MHXS 17 «Ijara» talablariga muvofiq keltiriladi. Operatsiyalar bunday tahlili BHMS bo'yicha va MHXS bo'yicha hisobdagi tafovutlarni aks ettiradigan ish hujjatlarini yetarli darajada tez yaratishga imkon beradi.

Muayyan aksiyadorlik jamiyatida qo'llaniladigan hisob siyosati tahlili ham BHMS bo'yicha va MHXS bo'yicha hisobda bir qator qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi.

MHXSga muvofiq hisob siyosati deyarli har doim MHXS O'zbekiston standartlarining analoglari asosida shakllantiriladi.

Shundan keyin o'zgartirish provodkalarini yaratish uchun baza bo'lib xizmat qiladigan ish hujjatlari hamda xalqaro standartlarga muvofiq keltirilgan ma'lumotlar va O'zbekiston qoidalari bo'yicha hisob ma'lumotlaridan iborat bo'lishi lozim bo'lgan o'zgarish jadvallari to'ldiriladi. Iqtisodiy axborotlar to'plash shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, uning hajmi MHXSga muvofiq ochib beriladigan zarur ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun yetarli bo'lsin.